

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA KO'PLIK KATEGORIYASINING O'XSHASHLIK VA TAFOVUTLARI

Isaqova Habibaxon Ashurali qizi

Andijon Davlat chet tillari instituti arab tili

filologiyasi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab va o'zbek tillaridagi ko'plik kategoriyasining grammatik va semantik jihatlari qiyosiy tahlil qilingan. O'zbek tili agglutinatив til bo'lib, ko'plikni oddiy qo'shimchalar yordamida ifodalasa, arab tili flektiv tizimga asoslangan bo'lib, unda ko'plik shakllari jins va turga qarab o'zgaradi. Maqola tilshunoslik nuqtayi nazaridan til strukturasi va morfologiyasini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lib, arab va o'zbek tillaridagi o'xshashlik va tafovutlarni ko'rsatadi.

Annotatsiya: В данной статье проведен сравнительный анализ грамматических и семантических аспектов категории числа в арабском и узбекском языках. Узбекский язык является агглютинативным, и число выражается с помощью простых аффиксов, в то время как арабский язык обладает флективной системой, где формы числа изменяются в зависимости от рода и типа. Статья имеет большое значение для лингвистики, так как она помогает понять структурные и морфологические особенности арабского и узбекского языков.

Annotation: This article presents a comparative analysis of the grammatical and semantic aspects of the plural category in Arabic and Uzbek languages. Uzbek is an agglutinative language, where plural is expressed through simple suffixes, while Arabic has a flexional system where plural forms change according to gender and type.

The article is significant in linguistics as it helps to understand the structural and morphological features of both Arabic and Uzbek languages.

Kalit soʻzlar: Koʻplik, arab tili, oʻzbek tili, morfologiya, grammatik tahlil, lingvistika.

Ключевые слова: Число, арабский язык, узбекский язык, морфология, грамматический анализ, лингвистика.

Keywords: Plural, arabic language, uzbek language, morphology, grammatical analysis, linguistics.

Koʻplik kategoriyasi barcha tillarda mavjud boʻlib, u predmetlarning miqdoriy koʻrsatkichini ifodalashda asosiy grammatik vositalardan biri hisoblanadi. Har bir til bu kategoriyani oʻz grammatik tizimi asosida shakllantiradi. Oʻzbek va arab tillari turli til oilalariga mansub boʻlsa-da, ular oʻrtasida koʻplikni ifodalashda baʼzi umumiyliklar bilan birga, sezilarli farqlar ham mavjud. Ushbu maqolada koʻplik kategoriyasining ushbu ikki tilda qanday ifodalanishi, grammatik va semantik jihatdan qanday oʻxshashlik va tafovutlarga ega ekani qiyosiy tahlil qilinadi.

Oʻzbek tilida koʻplik kategoriyasi morfologik, leksik, sintaktik, fonetik va notil vositalari orqali ifodalanadi. Oʻzbek tili agglutinative, yaʼni qoʻshimchalar yordamida soʻz yasovchi til boʻlib, unda koʻplik asosan “-lar/-lar” qoʻshimchasi orqali ifodalanadi: kitob – kitoblar, bola – bolalar. Bu grammatik koʻrsatkich oʻzbek tilining morfologik soddaligini va barqarorligini namoyon etadi. Shuningdek, oʻzbek tilida sintaktik koʻplik ham mavjud boʻlib, u son soʻzlar, masalan, bir, ikki, besh yoki aniqllovchi birliklar bilan ifodalanadi. Misol uchun: uch bola, bir nechta oʻquvchi. Ayrim holatlarda esa, koʻplik grammatik jihatdan emas, balki semantik jihatdan anglashiladi. Misol tariqasida koʻrishimiz mumkinki, qush uchib ketdi – bu bir emas, balki koʻplab qushlar boʻlishi mumkin.

Arab tili flektiv, ya'ni so'z shakllari ichki o'zgarishlar bilan yasaluvchi til bo'lib, unda ko'plik murakkabroq tizim orqali ifodalanadi. Arab tilida uch turdagi ko'plik mavjud:

1. Jam' salim muzakkar (m. ko'plik) – erkak jinsidagi so'zlar uchun: muslim – muslimūn
2. Jam' salim muannas (ayol jinsidagi ko'plik): muslima – muslimāt
3. Jam' taksir (buzilgan ko'plik) – bu turdagi ko'plikda so'z ildizining o'zi o'zgaradi: kitāb – kutub, valad – avlād

Arab tilidagi buzilgan ko'plik turi jam' taksir eng murakkab bo'lib, ularni o'zlashtirish til o'rganuvchidan maxsus yodlashni talab qiladi. Arab tilida ko'plik shakllari ildiz-shablon tizimi asosida shakllanadi, bu esa tilning morfologik tuzilishini belgilaydi. Arab tilidagi ko'plik shakllari nafaqat ko'plikni ifodalashda, balki boshqa grammatik funksiyalarda ham ishlatiladi.

Endi esa arab va o'zbek tillaridagi ko'plik shakllarining o'xshash tomonlarini ko'rib chiqamiz. Har ikki tilda ko'plik grammatik kategoriyadir va so'z shakli orqali ifodalanadi. Har ikkala tilda ham ba'zi hollarda ko'plik grammatik shakl bilan emas, balki kontekst orqali ifodalanadi. Arab tilida: nas (odamlar) – o'zi ko'plikda ishlatiladi, lekin yagona ko'plik shakli yo'q. O'zbek tilida: ko'p odam (bu yerda ko'p orqali ko'plik bildirilyapti). Har ikki til semantik (ma'no orqali) ko'plikni ham tan oladi. Har ikkala tilda ham ko'plik asosan otlarga tegishlidir, sifat, ravish kabi so'zlar ko'plik shakliga ega emas. Diniy, ilmiy va adabiy sohalarda ko'plik shakllari o'zaro o'zlashgan: kitob – kutub, farishtalar – mala'ika.

O'zbek tilida ko'plik bir xil qo'shimcha orqali (lar) ifodalanadi, arab tilida esa ko'plikning bir nechta grammatik shakllari bor. Arab tilidagi ko'plik jins va ko'plik turiga qarab o'zgaradi, o'zbek tilida esa jins kategoriyasi mavjud emas. Masalan: muallimūn (erkaklar), muallimāt (ayollar). O'zbek tilida grammatik jins yo'q. O'qituvchilar so'zi jinsni ajratmaydi.

Arab tilida ko‘plik ikki asosiy turda bo‘ladi:

1. Jam’ salim – oddiy qo‘shimchalar bilan (muallim → muallimūn)
2. Jam’ taksir – so‘zning tuzilishi o‘zgaradi (kitāb → kutub)

O‘zbek tilida ko‘plik odatda -lar/-lar qo‘shimchasi bilan ifodalanadi (kitob → kitoblar).

Arab tilida har bir ko‘plik shakli qat’iy grammatik qoidalarga bo‘ysunadi. Ba’zida bir so‘zning bir necha jam’ taksir shakli bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilida ko‘plik shakli deyarli har doim bir xil – -lar/-lar bilan yasaladi. Arab tilida “buzilgan ko‘plik” shakli fonetik va morfologik jihatdan o‘zgaruvchan bo‘lib, qat’iy qoida asosida emas.

Arab va o‘zbek tillarida ko‘plik kategoriyasi grammatik jihatdan farq qiladi, ammo tilshunoslik nuqtayi nazaridan har ikkisi ham o‘z tilining strukturasi va tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq tarzda shakllangan. O‘zbek tilining soddaligi va arab tilining murakkabligi ularning morfologik turlariga mos keladi. Bunday qiyosiy tahlillar til o‘rganishda ham, tarjima ishlarida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, til tuzilishining chuqur anglanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulhayov A. O‘zbek tilshunosligiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 220 b.
2. Arab va o‘zbek tillarida grammatik birliklarning qiyosiy tahlili. – Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: TDSHU, 2020.
3. Bobojonov F. Hozirgi o‘zbek tili. – Navoiy: Navoiy davlat pedagogika instituti, 2019. – 312 b.
4. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – Andijon: ADPI nashriyoti, 2025. – 240 b.
5. Mamatov A. O‘zbek tili grammatikasi. 1-jild: Morfologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2008. – 280 b.

6. Murodov S., Qodirov M. Arab tili grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston islom akademiyasi nashriyoti, 2018. – 198 b.
7. Ziyoda M. Soddalashtirilgan arab tili grammatikasi. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2021. – 140 b.